

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIIYAVII OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXII” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXII BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVII YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVII BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLII IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODII

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuzyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YIY INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOIYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoz</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARINING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoz Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

CONTRADICTIONARY CHANGES IN THE ECONOMIC INFRASTRUCTURE OF SHAHRISABZ DURING THE FORMER SOVIET ERA

Kamolova Habiba Muhammadiyevna,

Associate Professor, University of Economics and Pedagogy, Karshi

E-mail: kamolova_bkru.70@gmail.com

Abstract. This article highlights the contradictory changes in the economic infrastructure of the city of Shakhrisabz during the years of the former Soviet government, the negative aspects of the artificial acceleration of industrialization in the 1930s-80s, administrative command, the shortage of specialists, and the fact that as a result of the definition of tasks that could not be practically accomplished, the industrial enterprises of the city of Shakhrisabz were reduced to the status of producing primary products or raw materials due to the one-sided policy pursued by the central government of the former Union.

Keywords: infrastructure, industrialization, crafts, socialist industrialization, craft artels, "Stakhanovism".

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR

Kamolova Habiba Muhammadiyevna,

dotsent, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sobiq sovet hokimiyati yillarida Shahrisabz shahri iqtisodiy infratuzilmasidagi ziddiyatli o'zgarishlar, 1930-80-yillarda sanoatlashtirishning sun'iy ravishda jadallashtirilishining salbiy jihatlari ma'muriy buyruqbozlik, mutaxassis kadrlar yetishmasligi, amalda bajarib bo'lmaydigan vazifalarning belgilanishi natijasida Shahrisabz shahar sanoat korxonalarining sobiq Ittifoq markaziy hukumati tomonidan olib borilgan bir tomonlama siyosat tufayli birlamchi mahsulot yoki xom ashyo yetishtirib beradigan maqomga tushirib qo'yilganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: infratuzilma, sanoatlashtirish, kustar, sotsialistik industrlashtirish, hunarmandchilik artellari, "staxanovchilik".

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N11>

Sovetlar davrida Shahrisabz shahri xo'jalik yuritishning sotsialistik uslubi, rejali tizim hamda qattiq markazlashtirilgan xalq xo'jaligi boshqaruvi negizida rivojlandi. Bu, avvalo, mulkchilik shakllarining o'zgarishi va uning asosida yangi jamoaviy korxonalar tashkil etila boshlanishida namoyon bo'ldi.

1925-yil dekabrda VKP(b) XIV syezdi "sotsialistik industrlashtirish" siyosati tomon qadam tashladi. Ammo O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosati bir tomonlama ixtisoslashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, asosan qishloq xo'jaligi bilan bog'liq sanoat tarmoqlari qurilishiga alohida e'tibor qaratildi. Sobiq Ittifoqning xalq xo'jaligi tizimida O'zbekistonning roli va o'rni hukumat tomonidan majburan belgilab berildi.

1920-1925-yillarda sobiq Sovet Ittifoqida aholini sanoat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishni asosiy omillaridan biri mayda kustar (o'z uyida mahsulot ishlab

chiqaruvchi hunarmand) sanoatini rivojlantirish edi. Mayda kustar sohasining keng rivojlanishiga hunarmandchilik sohasidagi tarixiy an'analar, xom ashyo zaxirasining mavjudligi, hunarmandlar mehnat qurollarining oddiyligi va arzonligi edi.

1925-yil 4-oktyabrda "O'zbekiston hunarmandchilik ittifoqi" tashkil qilindi. 1927-yilga kelib O'zbekiston viloyat va tuman hunarmandchilik ittifoqlari soni 27 ta, hunarmandchilik artellari soni 386 ta edi[1]. Shahrisabzda ham 27 artel tashkil etilib, ularda 850 nafar ishchi mehnat qildi. Ulardan uchitasi novvoychilik, to'rttasi transport sohasida, qolganlari tikuvchilik, g'isht ishlab chiqarish, yog'ochga ishlov berish, metallchilik, ko'ncilik bilan mashg'ul bo'lgan[2].

O'rta Osiyoda xotin-qizlar masalasi eng nozik va murakkab muammolardan biri hisoblangan. Bu masalani Sovet davlati o'z bilganicha hal qilishga kirishdi. Ayollar jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga keng jalb etilib, erkaklar bilan teng asosda ishlaydigan shaxslar sifatida tarbiyalashga e'tibor qaratildi. 1926-yili O'rta Osiyo respublikalarida, jumladan O'zbekistonda xotin-qizlar o'rtasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish uchun "Hujum" deb atalgan majburiy tadbirlar boshlandi. Ayollar ishlab chiqarishning barcha sohalariga jalb etila boshlandi. Shahrisabzda ham 1928-yil fevral oyida kashta tikuvchi va gazlamalar to'quvchi 25 ayolni birlashtirgan xotin-qizlar hunarmandchilik arteli tashkil etildi. Uning bazasida keyinchalik yirik "Hujum" fabrikasi vujudga keldi[3].

1920-30-yillarda shahar aholining katta qismi asosan savdo va kosib hunarmandchiligi bilan shug'ullanar edi. Ular faoliyatini tartibga solish maqsadida 1933-yil Shahrisabz shahar ishchi dehqon va qizil armiya deputatlari kengashi ijroiya qo'mitasi 261 nafar shahardagi kosib va savdogarlarga ish faoliyati haqidagi ruxsatnoma pattasini berish to'g'risida qaror chiqardi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1932-yil dekabr oyidan Zaxaryanga –sartaroshlik, Niyaz Avazovga – sartaroshlik, Xodi Muxtorovga — etikdo'zlik, Ibroim Bozorovga – temirchilik bilan shug'ullanish uchun ruxsatnoma berilgan[5].

Shahar hayotida transport tizimini izga solish maqsadida 1936-yilda Shahrisabz rayonidagi aravakash va izvoshchilarni Kitob rayonidan ajratib, alohida shahar artelini tuzish haqida qaror qabul qilindi. Bunga Kitob Shahrisabzdan 8 km uzoqlikda joylashganligi, shuningdek, artel a'zolarini 75 % shahardan bo'lganligi sabab qilib ko'rsatildi. 1940-yilda shaharda transportning quyidagi turlari mavjud edi: avtomashina, mototsikl, velosiped, ot, tuya, eshak[5].

Shahrisabz shahrida asta-sekinlik bilan sanoat korxonalarining salmog'i osha boshladi. Paxta tozalash zavodi tubdan qayta uskunalandi, kosibchilik, hunarmandchilik kooperatsiyasi yangi mazmun kasb etdi. 1933-yilda Shahrisabz sanoat birlashmasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishildi[6].

1930-yillarda sanoatlashtirishning sun'iy ravishda jadallashtirilishining salbiy jihatlari O'zbekiston SSRda sanoat qurilishidagi zarur nisbatlar buzilishiga, ma'muriy buyruqbozlik, mutaxassis kadrlar yetishmasligi, sanoat sohasida oliy o'quv yurtlari va ishchilarning malaka oshirish tizimini yaratilmaganligi, amalda bajarib bo'lmaydigan vazifalarning belgilanishi bilan izohlanadi.

Xususan, sanoat korxonalarini viloyatlar bo'yicha joylashtirishda doimiy ravishda nomuvofiqliklar mavjud bo'lgan. Masalan, 1927-1928-yillarda O'zbekiston hududida jami 191 ta yirik sanoat korxonasi bo'lib, ularni viloyatlar bo'yicha taqsimlaganda Toshkent, Farg'ona viloyatlarida sanoat korxonalari ko'pchilikni tashkil etgan bo'lsa, Samarqandda 29 ta,

Andijonda 19 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritgan. Yirik sanoat korxonalari eng kam bo'lgan hududlar Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga to'g'ri kelgan[7]. Mavjud sanoat korxonalarining aksariyati Ittifoq tasarrufida edi. Respublika va mahalliy hokimiyat tasarrufidagi korxonalar soni kam bo'lgan. Masalan, 1926–1927-yilda O'zbekiston sanoat korxonalarining 76,4 foizi Ittifoq tasarrufida bo'lsa, 1927-1928-yilda ularning salmog'i 78,4 foiz bo'ldi. Respublika ko'rsatkichi esa bu yillarda 16,8 foizdan 14,1 foizgacha pasaygan[8].

O'zbekiston bo'yicha qirg'inlar va qatag'onlik davom etayotgan, hayotning barcha sohalarida sovetcha va bolshevikcha tajribalari asosida o'zgarishlar bo'lib o'tayotgan bir paytda Ikkinchi jahon urushi boshlandi. Shahrisabzliklar nafaqat frontda, balki front orqasida ham mehnat jasoratini ko'rsatdilar. Urushning birinchi kunlaridayoq xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari harbiy izga tushirildi. Viloyatning Qarshi shahri va tumanlari singari Shahrisabzda ham ishlab turgan mahalliy sanoat korxonalari armiya uchun kiyim-kechaklar tayyorlashga kirishdi.

Masalan, Shahrisabz shahar va tumani mehnatkashlari Stalingrad uchun qahramonona jang qilib, dushmani tor-mor qilishda munosib hissa qo'shgan Kiryunov qo'mondon bo'lgan 2-bo'linma jangchi va ofitserlariga 76 qo'y, 1460 kg gurunch, 200 litr vino, 3242 dona issiq kiyim-bosh, 1943-yilning 6 oyi ichida 170 ta posilka, 1943-yilning oktyabr oyida 200 litr vino, bir tonna quruq meva tayyorlab yubordilar[9].

Besh yil davom etgan urushning g'alaba bilan yakunlanishi natijasida, shahrisabzliklar ham kelajakka katta umid bog'lab tinch hayot maromini tiklashga, iqtisodiyotni tinch hayotga moslashtirishga, urush oqibatlarini barham toptirishga o'z kuchlarini yo'naltirdilar.

XX asrning 50-yillarida Shahrisabz shahri taraqqiyotida katta siljishlar va o'zgarishlar ro'y berdi. Xo'jalikning barcha tarmoqlarini tinch qurilish yo'liga o'tishi ancha qiyin kechdi. Bu davrda Shahrisabz hayoti ancha murakkab va ziddiyatli bo'ldi. Ijobiy va salbiy jihatlar bir-biriga chambarchas qo'shilib ketdi, hatto siyosiy mafkuraviy va iqtisodiy tazyiq xo'jalik va madaniy hayotni tiklashga qaratilgan amaliy ish bilan yo'g'rildi. Sanoatdagi ishchi va xizmatchilarning real ish haqi 1955-yilda 1950-yilga nisbatan 39% ko'paydi.

1940-yili sanoat korxonalarida 232 ming nafar xotin-qiz mehnat qildi. Bu jami ishchilarning 40,7 foiziga teng edi. 1955-yilning oxiriga kelib Shahrisabzda mavjud artellarda faoliyat ko'rsatayotgan xotin-qizlarning soni ham 300 nafarni tashkil etib, ularning 95% o'zbek ayollari edi[10].

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish oshgani sayin 1950-60-yillarda yog' ekstraksiya va paxta tozalash zavodi singari yangi korxonalar qurildi, konserva, vinochilik zavodi, qurilish materiallari, tikuv va maishiy buyumlar fabrikalarining ishlab chiqarish maydonlari kengaydi. 1950-yilda Shahrisabz "Hujum" arteliga "Hujum" badiiy san'at fabrikasi nomi berildi. 1952-yil sentyabrda Shahrisabzda tabiiy resurslarni qidirib topish Qashqadaryo geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi tashkil topdi.

1957-yilda viloyat sanoat korxonalari ichida birinchi bo'lgan Shahrisabz paxta tozalash zavodida qayta qurish ishlari amalga oshirilib, quritish-tozalash sexi, dizel stansiyasi ishga tushirildi. 1958-yilda Pillakashlik zavodi qurt urug'larini yetishtirish va ularning navlarini yaxshilashda yuksak natijalarga erishdi. "Hujum" artelida tikuvchilik sexi, Oxunboboyev artelida mebel sexi, yog' zavodida muzlatgich sexi, paxta tozalash zavodida katta quvvatga ega quritish sexi qurib ishga tushirildi[11].

1958-yilda yirik sanoat korxonasi konserva zavodi qurib ishga tushirildi. Zavodda 1964-yilda mahalliy aholi uchun 2017 tonna uzum, 1344 tonna olma, 7658 tonna tomat pastasi, 117 tonna bodring kabi sabzavotlarga qayta ishlov berilib, iste'molchilarga chiqarildi. 1963-yilda 1 ishchiga yalpi mahsulot ishlab chiqarish 22,02 so'mdan, 1964-yilda 2324 so'mdan to'g'ri kelgan[16]. 1964-yilda 5932 ming so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari realizatsiya qilindi. Zavodni kapital ta'mirlash uchun 1964-yilda 75 ming so'm, madaniy-maishiy binolar qurishga 3 ming so'm, ishlab chiqarish asbob-uskunalarini saqlovchi omborxona qurilishiga 11 ming so'mlik mablag' sarflandi. 1967-yilda Shahrisabz konserva zavodining sabzavot sexida pomidor pastasi va sharbatni ishlab chiqaruvchi ikki potok liniya ishga tushirildi[12].

1975-yilda Konserva zavodda Vengriyadan keltirilgan sutkasiga 150 tonna pomidorni qayta ishlash quvvatiga ega yangi liniya va 3 mln shishali banka ishlab chiqarish quvvatiga ega yangi sex ishga tushirildi. Tara va tayyor mahsulotlarni tashish mexanizatsiyalashdi.

"Hujum" fabrikasi 1959-yilning oxirida yirik fabrikaga aylanirildi. 1966-1968-yillarda "Hujum" fabrikasi o'z mahsulotlarini Anqara, London, Parij kabi shaharlarda hamda Gveniya, Kosta-Rika kabi davlatlarda tashkil etilgan jahon ko'rgazmalarida namoyish etdi. Shuningdek, Monreal (1968), Izmir (1970), Yaponiyada (1971) bo'lgan xalqaro ko'rgazmalarda fabrikada tikilgan do'ppilar va kashtalar oltin medallarga sazovor bo'ldi. Fabrikada 1969-yilda 1051 kishi mehnat qilib, 1039 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib sotildi. 1975-yilda "Hujum" fabrikasida gilam, "Sanama", "Chizma", "Iroqi" do'ppilari, yarim jundan to'qilgan gilamlarga "Davlat sifat belgisi" berildi[13].

Sobiq sovet davlati sanoat ishlab chiqarishni keskin oshirish, ishchilarning g'ayratini avj oldirish maqsadida "sotsialistik musobaqa", "staxanovchilik", "zarbdorchilik" kabi ishchilar harakatini uyushtirdi. "Hujum" fabrikasining do'ppichilik sexi ishchilaridan Anvar Saydaliyeva, Karomat Sultonova, gilam to'qish sexi ishchilaridan Kimyo Sobirova, Tamara Pinxasovalar oylik planlarini 150-180% ga bajarib sotsialistik musobaqa g'oliblariga aylandilar[14]. Bu harakatlar quruq rasmiyatchilik bo'lib, unda barcha ishchilarning 70 foizdan ortig'i ishtirok etsa-da, amalda samarasi juda past bo'ldi.

1971-yilda fabrikada mahsulot sifatini yaxshilash va ko'paytirish maqsadida 300 ming so'mdan ortiq kapital qurilish ishlari bajarildi. 3 ta gilam sexi, 2ta yong'indan himoya punkti, 2 ta omborxona, 1 ta oshxona, 1ta ayvon, 140 bolaga mo'ljallangan bolalar bog'chasi qurib ishga tushirildi. Fabrikada ishlab chiqarish uchun 3 ta yuk avtomashinasi, 20 ta kashta tikish mashinasi, 51 dona gilam to'qish do'konlari olindi[15].

1972-yilda shaharda sanoat korxonalari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish rejasi 114% ga, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish rejasi 105% bajarildi. Sanoat korxonalaridan go'sht kombinati, konserva zavodi, paxta tozalash zavodi, sut-yog' zavodi, Hujum fabrikasi, bosmaxona, shahar elektr tarmoqlari korxonalari faoliyatida bu holatlar ko'zga tashlandi[16].

Shahrisabz shahrida mahalliy sanoatning pillachilik sohasi yo'nalishida 1977 -yilda Pillakashlik fabrikasi ishga tushirildi. Fabrika dastlab yiliga 200 tonnadan ziyod tabiiy ipakni qayta ishlagan bo'lsa, keyinchalik yiliga 770 tonna pilladan qimmatbaho xomashyo ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, yiliga 20 mln so'mlik mahsulot bera boshladi. Fabrika Yaponiyadan keltirilgan mexanizm bilan jihozlandi. 1980-yillarga kelib fabrika o'z ishchilar shaharchasi va 140 o'rinli bolalar bog'chasiga ega edi. Shuningdek, fabrikada 1500 ishchi mehnat qildi.

1976-yilning 11 oyida shaharda Paxta tozalash zavodi, Konserva zavod, Vino zavodi, Yog'-pishloq zavodi, Go'sht kombinati, Mebel fabrikasi, Hujum fabrikasi, Toshni saralash zavodi, Bosmaxona, Elektr tarmoqlari korxonasi va Qishloq xo'jalik texnikalarini ta'mirlash va jihozlash kabi sanoat korxonalari mavjud bo'lib, ular belgilangan rejani muddatidan avval bajarishga erishdilar[17].

Konserva zavodi sobiq sovet ittifoqining Uzoq Sharq, Sibir, Ural hududlariga hamda Mongoliya Xalq Respublikasiga o'z mahsulotlarini eksport qildi. 1975-yilda zavod 7 ta mahsulotiga sifat belgisi olgan bo'lsa, 1977-yilda 18 tur mahsulotiga sifat belgisi belgilandi. Uning ishlab chiqarish quvvati 10 mln. so'mni tashkil etgan[18].

1977-1978-yillarda Shahrisabz paxta tozalash va konserva zavodlari rekonstruksiya qilinib qayta ta'mirlandi. 1983-yilda Shahrisabzda mebel fabrikasi va ip-gazlama kombinatining filiali qurilishi bu sohalarni rivojlanishiga olib keldi. Shuningdek, Shahrisabzda sut-pishloq zavodi 1970-yilda ishga tushgan bo'lib, ishlab chiqarish quvvati esa 3 mln so'mni tashkil etib, shahar sanoati rivojiga o'z hissasini qo'shgani ma'lum.

Ushbu yillarda Shahrisabz paxta tozalash zavodining mahsulotlari Germaniya Federativ Respublikasi, GDR, Polsha, Chexoslovakiya, Yaponiya kabi mamlakatlarga eksport qilina boshlandi. Zavodning ishlab chiqarish quvvati esa 60 mln so'mni tashkil etdi[19].

Shahrisabz shahriga qarashli Kitob vinochilik zavodi mahsulotlaridan "Shirin", "Vassarg'a" markali vinolari xalqaro tanlovda oltin medalga sazovor bo'ldi. Zavod qayta qurilib, avtomat liniyalari bilan jihozlandi. 1980-yilda Kitob vino zavodi Shahrisabz vino-aroq zavodiga aylantirildi. Vino zavodida 1980-yillarda 18 turdagi vino ishlab chiqarilib, zavodning ishlab chiqarish quvvati 10 mln so'mni tashkil etdi. Zavod sobiq Ittifoqning ko'pgina shaharlaridagi vistavkalarida qatnashib ikkitadan oltin va kumush medallarni egalladi. Vino-aroq zavodiga Shvetsiyaning "Alfa-Laval" firmasi ishlab chiqargan 725 ming so'mlik yangi dealkolizator ishga tushirildi. Ammo zavod o'z mahsulotlarini 10 foizini ham o'zi sotish huquqiga ega emas edi. Zavodda moddiy-texnika jihozlaridan shisha idishlar, etiketka, filtr-karton, probka va boshqalar yetishmas, mahsulotlarni sotishdan tashqari tushgan pulni deyarli hammasi davlat buyudjetiga o'tkazilganligi sababli foyda kam olinar edi.

1980-yilga kelib qum-shag'al, vino-aroq, sut-pishloq zavodlari, go'sht kombinati davlat belgilagan rejani muddatidan avval bajardi. Ammo "Hujum" fabrikasi, mebel fabrikasi, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarishi keskin kamaydi, ular belgilangan rejani bajara olmadilar[20].

1985-yilda butun sobiq Sovet Ittifoqi hududida boshlangan "qayta qurish" siyosati negizida sanoat korxonalarining o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashi borasida amaliy ishlar boshlandi. Natijada Shahrisabzda mavjud 11 ta sanoat korxonasida issiqxona, yordamchi xo'jaliklar tashkil etildi. Hatto, keyingi 3-yil ichida geologiya qidiruv ekspeditsiyasi yirik qoramollar sonini-162 boshga, mayda shoxli mollar sonini 424 boshga, cho'chqalar sonini 300 boshga yetkazdi[21].

Biroq, o'tgan asrning 80-yillaridagi butun sobiq SSSRdagi iqtisodiy bo'hron respublikani ham chetlab o'tmadi. Masalan, 1985-yilga kelib Pillakashlik fabrikaning 700 ming so'mlik tayyor mahsuloti sotilmay qoldi. Natijada fabrika 1987-88-yillardan boshlab o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash va boshqarish sistemasiga o'tish uchun tayyorgarligini boshlagan bo'lsa ham, bu inqirozdan mustaqillik yillarida chiqdi.

Xullas, shaharda tashkil etilib ishga tushirilgan sanoat korxonalarining yalpi daromadi shahar byudjetining asosini tashkil etdi. Shahardagi sanoat korxonalari aholining mehnatga layoqatli qismini ish bilan band etishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ishlab chiqargan mahsulotlar qiymati va ahamiyati jihatidan bu korxonalar nafaqat viloyatda, balki respublika, sobiq Ittifoqda muhim o'rin tutdi. Shahrisabz sanoat shahriga aylandi.

Sanoat korxonalari sobiq Ittifoq markaziy hukumati tomonidan olib borilgan bir tomonlama siyosat tufayli birlamchi mahsulot yoki xom ashyo yetishtirib beradigan maqomga tushirib qo'yildi. Mustaqillik arafasida Shahrisabzda 13 ta sanoat korxonasi mavjud edi. Shahrisabz shahri sovetlar davrida umuman olganda xom ashyoni dastlabki qayta ishlashga, birinchi galda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bir yoqlama iqtisodiyotli chekka shaharligicha qoldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Тўхтаев А.Қ. Ўзбекистонда миллий ҳунармандчилик ва уни “социалистик” асосида саноатлаштиришнинг ижтимоий оқибатлари. (1917 – 1941 йиллар) // Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Т.: 2001. –17 б.
2. QVDA, 164-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 1-varaq.
3. O'z MA, 46-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 1-varaq.
4. QVDA Shahrisabz filiali, , 6-fond, 5-ro'yxat, 6- ish, 15-varaq.
5. 6-fond, 7-ro'yxat, 6- ish, 14-varaq.
6. QVDA Shahrisabz filiali, 7-fond, 3-ro'yxat, 273-ish, 6-varaq.
7. QVDA, 83-fond, 256-ish, 1-ro'yxat, 31-varaq.
8. Лелчук В.С. СССРни саноатлаштириш: тарихи, тажрибаси, муаммолари. – М.; Политиздат, 1984 . – Б. 234.
9. QVHA, 4-fond,, 2-ro'yxat, 594-ish, 66-varaq.
10. QVDA, 164-fond, 2-ish, 2-ro'yxat, 17-varaq.
11. QVHA, 4-fond, 1-ro'yxat, 68-ish, 23-varaq.
12. QVDA Shahrisabz filiali. 4-fond, 1-ro'yxat, 694-ish, 21-varaq
13. QVHA, 4-fond, 1-ro'yxat, 115-ish, 21-varaq.
14. Жўракулов О., Эргашева Ж. Қашқадарё саноати тарихи. – 66-67 б.
15. QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 8-ro'yxat, 1-ish,. 31-varaq.
16. QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 1-ro'yxat, 88-ish, 24-varaq.
17. QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 8-ro'yxat, 151-ish, 31-varaq.
18. QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 8-ro'yxat,, 157-ish, 1-varaq.
19. QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 1-ro'yxat, 205-ish, 14-varaq
20. QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 1-ro'yxat, 22-ish, 8-varaq
21. QVDA Shahrisabz filiali, 4-fond, 1-ro'yxat, 221-ish, 8-varaq.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).